

RASHKNING O'ZIGA XOS KO'RINISHLARI: O'ZBEK VA TURK SHE'RIYATIDA

Pardaboyeva Ruxsora Ibrohim qizi

TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti,

1-kurs turk-ingliz guruhi talabasi

Tel: +998997856807

Mail: pardaboyevaruxsora204gmail.com

Nuriddin Altinboyev

TDSHU katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining atoqli vakili Erkin Vohidovning "Rashkim" hamda turk adabiyotining yorqin namoyandasi Faruk Nafiz Çamlıbelning "Kıskanç" she'rlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ikkala shoir tomonidan kuylangan rashk tuyg'usining mazmun-mohiyati, badiiy ifodasi o'rganiladi. Maqolada rashkning lirik, nafis ko'rinishi hamda dramatik, keskin talqini tahlil qilinib, ikki millat adabiyotida ushbu tuyg'uning qanday yoritilgani haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, shoirlarning uslubi, obrazlar tizimi va poetik mahorati solishtirilib, umumiylik va farqlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: rashk, Erkin Vohidov, Faruk Nafiz Çamlıbel, qiyosiy tahlil, o'zbek adabiyoti, turk adabiyoti

O'zbek adabiyotining yirik namoyondasi Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida muallim oilasida tug'ilgan. Yoshligida ota-onasidan erta yetim qolgan va tog'asi tarbiyasida qolgan. Erkin Vohidov she'riyat, dramaturgiya va tarjima sohasida samarali ijod qilgan bo'lib, uning O'zbekim, Nido, Ruhim, Qasida, Rashkim kabi asarlari o'zbek adabiyotining durdonalari hisoblanadi. Shoir 2016-yil 30-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

XX asr turk adabiyotining mashhur shoirlaridan biri Faruk Nafiz Çamlıbel 1898-yil 14-mayda Istanbulda tug'ilgan. Istanbul universitetining tibbiyot fakultetida tahsil olgan, ammo keyinchalik adabiyotga qiziqib, shoirlik va jurnalistika bilan shug'ullangan.

Faruk Nafiz "Han Duvarları", "Çoban Çeşmesi", "Gönülden Gönüle", "Bir Ömür Böyle Geçti" kabi mashhur she'rlar muallifidir. Shoir 1973-yilning 8-noyabrda vafot etgan.

Rashkim

Seni yotlar tugul hatto —

Qilurman rashk o'zimdan ham,

Uzoqroq termulib qolsam,

Bo'lurman g'ash ko'zimdan ham.

Ko'zim yongay senga nargis —
Ko'zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam, lolaga rashkim
Ayon bo'lgay yuzimdan ham.

Degaylarki, charosu
Ol gilos olmish labingdan rang,
Labing tegsa hasad qilgum
Gilos bilan uzumdan ham.

Seni jonim dedim yolg'iz,
Seni qalbim dedim tanho,
Chimirding qosh, pushaymonman
Qo'pol aytgan so'zimdan ham.

Visol onida ko'z ochsa,
Ne tong, tongdan ko'ngilda ranj,
Judo qilgay meni oy yuz,
Xumor ko'z yulduzimdan ham.

Senga o'n to'rtida bog'landim,
Hanuz erkin bo'lolmas dil,
O'zim dog'man, aql kirmas,
To'zimsiz o'ttizimdan ham.

Erkin Vohidov
1967

Kıskanç
Sakın bir söz söyleme... Yüzüme bakma sakın!
Sesini duyan olur, sana göz koyan olur.
Düşmanımdır seni kim, bulursa cana yakın,
Anan bile okşasa, benim bağrım kan olur...

Dilerim Tanrı'dan ki, sana açık kucaklar
Bir daha kapanmadan kara toprakla dolsun
Kan tükürsün adını candan anan dudaklar,
Sana benim gözümle bakan gözler kör olsun!

Faruk Nafiz Çamlıbel

She'rlarning badiiy tahlili

"Seni yotlar tugul hatto —

Qilurman rashk o'zimdanda ham..."

Bu misralarda shoir rashk tuyg'usini chuqur ifodalagan. Shunchalar chuqurki, shoir sevgilisini hatto o'zining ko'zlaridan, so'zlaridan, hatto o'zidan ham rashk qiladi, bu esa uning sevgisining naqadar chuqur va samimiy ekanligini ko'rsatadi.

"Labing tegsa hasad qilgum

Gilos bilan uzumdan ham."

Bu misrada shoir sevgilisining lablarini shu qadar go'zal deb biladiki, agar u gilos yoki uzumga tegsagina, ulardan rashk qiladi. Ya'ni, bu yerda rashk oddiy insonlardan emas, balki tabiat ne'matlaridan — mevalardan ham qilinadi. Bu shoirning sevgilisiga bo'lgan mehrining kuchliligini, uning go'zalligini ortiqcha so'zsiz ta'riflash yo'lidir.

"Visol onida ko'z ochsa,

Ne tong, tongdan ko'ngilda ranj."

Bu yerda shoir visol lahzalarining nihoyasini tasvirlayapti. Uchrashuv tugab, tong otganida, shoirning ko'nglini ranj, ya'ni qayg'u bosadi. Chunki tong — ajralish, yana bir-biridan uzoqlashish demak. Shoir uchun visol – baxt, tong esa – xafalik timsolidir. Shu misrada shoirning sevgilisiga bog'lanib qolganligi va uni tark etish og'ir kechayotgani ifodalanadi.

"Senga o'n to'rtida bog'landim,

Hanuz erkin bo'lolmas dil,

O'zim dog'man, aql kirmas,

To'zimsiz o'ttizimdan ham."

Bu to'rtlikda shoir sevgan insoniga juda yoshligida — 14 yoshida bog'langanini aytmogda. Oradan yillar o'tgan bo'lsa-da, yuragi hanuzgacha ozod emas, ya'ni u hali ham o'sha muhabbat bilan yashamoqda. Shoir o'zini kuygan, dog' tushgan inson deb tasvirlaydi va hali ham bu tuyg'udan qutulolmayotganini tan oladi. Hattoki, 30 yoshga kirgan bo'lsa ham, aqli emas, yuragi boshchilik qilmoqda.

Endi esa ikkinchi she'rning tahliliga o'tsak,

"Sakin bir söz söyleme... Yüzüme bakma sakın!

Sesini duyan olur, sana göz koyan olur."

Shoirning rashki shunchalik kuchliki, sevgan yoriga: "Menga gapirma, qarama ham," deydi. Chunki boshqalar ovozini eshitib, unga oshiq bo'lib qolishidan qo'rqadi. Shoirning rashki naqadar kuchli ekanligini mana shu bosh satrlardan ham ko'rinib turibdi.

"Düşmanımdır seni kim, bulursa cana yakın,

Anan bile okşarsa, benim bağrım kan olur..."

— Kim seni o'ziga yaqin olsa — hatto onang senga mehr ko'rsatsa mening bag'rim qon bo'ladi deydi shoir ushbu misralarda. Shoirning rashki nafaqat begonalarga, balki yaqinlarga ham. Shoir sevgilisini hatto onasidan ham rashk qilyapti, bu ham she'ring ta'sirchanligini oshirib, rashkning naqadar kuchli ekanligini ifodalagan.

"Dilerim Tanrı'dan ki, sana açık kucaklar

Bir daha kapanmadan kara toprakla dolsun"

Shoir bu misralarda sevgilisiga ochilgan har qanday quchoqlar yopilmasdan oldin qora tuproq bilan to'lishini, ya'ni yo'q bo'lishini Tangridan so'rab duo qilmoqda. Bu yerda endi rashk nafratga aylangani seziladi.

"Kan tükürsün adını candan anan dudaklar,

Sana benim gözümle bakan gözler kör olsun!"

— "Sening ismingni tilga olgan lablar qon tupursin, menga o'xshab qaragan ko'zlar ko'r bo'lsin," deydi shoir.

Bu yerda rashk haddan oshgan, ko'r-ko'rona hasad va qizg'anishga aylangan.

Turk adabiyotida bunday she'rlar "beddua şiir" deyiladi

Endi esa ikkala she'rdagi o'xshashliklarga to'xtaladigan bo'lsak,

ikkala she'r ham inson qalbidagi rashk — ya'ni o'ziga xos nozik va murakkab tuyg'uning she'riy ifodasidir. Har ikkala shoir ham rashkni oddiy qizg'anish emas, balki ichki azob, qalbni qiynovchi va jonni o'rtovchi kuch sifatida tasvirlaydi.

Erkin Vohidov ham, Faruk Nafiz Çamlıbel ham rashk tuyg'usini shunchaki his emas, balki insonni o'ziga mutlaq bo'ysundirib oladigan, unga sabr bermaydigan kuch sifatida ko'rsatadi. Har ikki she'rda ham rashk haddan tashqari kuchli tasvirlangan.

Erkin Vohidovning "Rashkim" she'rida lirik qahramon sevgilisini begona qolib, hatto o'zidan ham rashk qiladi.

Faruk Nafiz Çamlıbelning "Kıskanç" she'rida esa rashk yanada kuchliroq va og'irroq tus oladi: lirik qahramon sevgilisini onasidan ham rashk qiladi. Hatto onasining mehribonlik, yaqinlik ko'rsatishi uning yurak-bag'rini qon qiladi. Shunday qilib, ikkala she'rdagi umumiy va eng katta o'xshashlik ham rashkning juda kuchli tasvirlanganligi.

Ammo she'rlarning mavzusi bir xil bo'lgani va yuqoridagidek o'xshashliklari bo'lgani bilan bir qancha farqli jihatlari ham bor. Erkin Vohidovning "Rashkim" she'rida rashk tuyg'usi mayin, nafis va muloyim ohangda ifodalangan. Shoir rashkni bevosita nafrat yoki dushmanlik sifatida emas, balki sevgining nozik bir ko'rinishi sifatida tasvirlaydi. Lirik qahramon sevgilisini hatto shamoldan, gullardan rashk qiladi, biroq bu rashkda yovuzlik yoki yomon niyat yo'q.

Erkin Vohidov tabiat obrazlarini — shamol, gullar, sabo kabi unsurlarni ishga solib, sevgilisi go'zalligini ularga qiyos qiladi va shu vosita bilan rashkni poetik va estetik tarzda ifodalaydi.

Bunga qarshi tarzda, Faruk Nafiz Çamlıbelning "Kıskanç" she'rida rashk keskin, iztirobli va hatto "beddua"lar bilan ifodalanadi. Lirik qahramon sevgilisini nafaqat begona ko'zlardan, balki onasi kabi eng yaqin insonlardan ham rashk qiladi. Bu rashk haddan tashqari kuchli bo'lib, qahramon qalbini azoblaydi va uni ruhiy iztirobga olib keladi.

Erkin Vohidovning "Rashkim" va Faruk Nafiz Çamlıbelning "Kıskanç" she'rlari rashk tuyg'usining turlicha poetik talqinini namoyon etadi. Ikkala shoir ham rashkni kuchli va jonli tarzda ifodalagan bo'lsa-da, Erkin Vohidov uni tabiat obrazlari va mayin ohang orqali nozik sevgining timsoli sifatida tasvirlagan, Faruk Nafiz esa rashkni iztirob, "beddua"lar bilan ifodalagan. She'rlarning uslubiy farqlari ikki shoirning badiiy qarashi va ichki dunyosini yorqin namoyon qiladi.

Ammo ikkisi ham insonni bir o'qishda o'ziga jalb qiladigan va ta'sirlantiradigan she'rlar sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni". – Toshkent, 2022.
2. Tonga Necati. "Cumhuriyet Dönemi Türk Edebiyatında Beddua Şiirleri". – İstanbul, 2010.
3. Nihayet Durakunoğlu. "Evrensel Şiir". –2023.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

- 1.uz.wikipedia.org
- 2.https/guldu.uz
- 3.tafakkur.net